

OJH2864



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI HAY’AT QARORI

2026-yil 8-aprel

№ 6/1

Toshkent sh.

Ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2026-yil mart oyi yakunlari, aprel oyida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo‘yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko‘rish, topshiriqlarning ijrosini o‘z vaqtida, samarali va to‘liq hajmda bajarish yuzasidan rahbar-xodimlarning shaxsiy mas’uliyati va javobgarligini oshirish to‘g‘risida.

Vazirlik hay’ati qayd etadiki, 2026-yilning mart oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son va 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori asosida ijro intizomiga qat’iy rioya etish, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini ta’minlash borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib muayyan natijadorlikka erishilgan.

2026-yilning mart oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarni 25-martga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I-II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 3-fevral kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, Vazir imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlarida hamda har haftaning dushanba kunlari Vazir huzurida o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning 40,0 foizini 10 sanaga qadar, 70,0 foizini 15 sanaga qadar, 90,0 foizini 20 sanaga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25 sanaga qadar 100,0 foiz qilib ta’minlash bo‘yicha muntazam ravishda tegishli ko‘rsatmalar va topshiriqlar berilgan.

Buning natijasida, hisobot davrida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatish hisobiga “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 28 ta hamda Vazirlar Mahkamasining 60 ta topshiriqlari ijrosi to‘liq ta’minlangan holda nazoratdan chiqarilgan bo‘lib natijadorlikka erishilgan bo‘lsa, 187 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlaridan 184 tasi, ya’ni 98,4 foiz ijrosi bajarilib, 3 ta (1,6 foiz) topshiriq ijrosi ta’minlanmagan.

Jumladan, Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti (N.Xo‘jaqulov) tomonidan 2 ta topshiriq hamda Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi (S.Astanov) tomonidan 1 ta topshiriq bajarilmagan.

2026-yilning aprel oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining

topshiriqlarini 25-aprelga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazir o'rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda "*Yo'l xarita*"lar 4-mart kuni eslatma va ijro uchun barcha vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

2026-yilning aprel oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlardan Suv xo'jaligini raqamlashtirish va monitoring markazi direktori **S.Atabayeva**, Moliya-iqtisod masalalari boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari **J.Jonkayev**, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi **A.Tagayev**lar tomonidan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rilmadan, ijro muddatini kutib o'tirish holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taqdim etilgan hisobot va axborotlarni tinglab hamda muhokama qilib ijro intizomiga rioya qilish borasida 2026-yil mart oyida yo'l qo'yilgan sustkashlik, xato va kamchiliklarni bartaraf etish, mart oyida "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish orqali belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash, qat'iy tartib, intizom va tizimli nazorat o'rnatish hisobiga natijadorlikka erishish yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. *Ijro intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2026-yil mart oyi yakunlari, aprel oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish, topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida, samarali va to'liq hajmda bajarish yuzasidan rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish to'g'risidagi axborot **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2026-yil mart oyi davomida ijro intizomiga rioya etish, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklaridan kelib tushayotgan barcha hujjatlarning ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlash borasida olib borilgan ishlar **yeterli emas deb topilsin.**

3. 2026-yil mart oyida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi kechiktirishiga yo'l qo'rganliklari uchun Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti direktori **N.Xo'jaqulov** hamda Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori **S.Astanov**larga **ogohlantirish e'lon qilinsin.**

4. 2026-yilning aprel oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini 25-aprelga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan vazir o'rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda "*Yo'l xarita*"lar 24-mart kuni hamda I-II kartoteka topshiriqlar ro'yxati 4-mart kuni eslatma va ijro uchun barcha vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda to'liq va sifatli bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga o'z vaqtida kiritilishiga Vazirning barcha o'rinbosarlari shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

5. Vazirning birinchi o'rinbosari **Z.Ishpulatov**, Vazir o'rinbosarlari **R.Qarshiyev**, **O'.Sheraliyev** va **M.Karimov**, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida mazkur yig'ilish qarorini har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, ijro intizomiga rioya qilinmaganda, shuningdek, topshiriqlarning ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlamagan taqdirda intizomiy jazo chorasi muqarrarligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratiladigan mukofot va rag'batlantirish mablag'laridan chegirib qolinishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

2026-yilning **aprel oyida** ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarning 50,0 foizini 10-aprelga qadar, 70,0 foizini 15-aprelga qadar, 90,0 foizini 20-aprelga qadar hamda qolgan barcha topshiriqlar ijrosini 25-aprelga qadar 100,0 foiz qilib ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan mas'ullarga qat'iy choralar ko'rilishi hamda bajarilmagan har bir topshiriqqa yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligini ko'rsatib o'tish;

berilgan topshiriqlarni ijro muddatini turli vajlar bilan **qayta-qayta uzaytirish holatlariga barham berish** hamda ularni o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini qat'iy nazoratga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish vazifalari yuklatilsin.

6. Vazirlikning 2025-yil 5-noyabrdagi 192-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash, qat'iy tartib, intizom va tizimli nazorat o'rnatish bo'yicha respublika Shtabi (R.Qarshiyev)ga:

har haftada kamida ikki marotaba O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklidagi yig'ilishlarni o'tkazib, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini tanqidiy ruhda muhokama qilish;

topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish orqali belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash, qat'iy tartib, intizom va tizimli nazorat o'rnatish hisobiga natijadorlikka erishish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari hamda "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

ijro intizomiga rioya qilmayotgan, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

7. Vazir yordamchisi **U.Sultonov** hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i **M.Ibragimov**larga:

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan I va II kartotekaga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan kunbay tizimida tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Prezident Administratsiyasi rahbarining va Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (*har oy yakuni bilan*) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida vazirlik rahbariyatiga axborotlar taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur qaror topshiriqlarining ijrosini tashkil etishni vazirning o'rinbosari (*ijro intizomi uchun mas'ul*) **R.Qarshiyev** zimmasiga yuklatib, uning nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

Hay'at raisi



ayev